Abbasov Baurjan Madiyarovich, Navik Istikomah, Se M.Si, Nasriddinov Fazliddin	
Некоторые вопросы инноваций в развитии банковской деятельности.....	894
Джураев К. Т.	
Применение цифровых технологий в противодействии финансовым мошенничествам .....	901
Гадаев Ислам Ядгарович	
Turizm sohasida kadrlar tayyorlashga ilmiy-nazariy yondashuvlar va kadrlarning zamonaviy kompetensiyalari .....	905
Yuldasheva Dilnoza Ulug’bekovna	

# MUNDARIJA SODERJANIYE CONTENTS



# MAMLAKATDA MOLIYA BOZORINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

**Rizayeva Laylo Patxulla qizi**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi  
"Davlat moliysi va xalqaro moliya" mutaxassisligi magistranti

**Boboqulova Shaxlo Turg'in qizi**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi  
"Davlat moliysi va xalqaro moliya" mutaxassisligi magistranti

**Aminjonova Nozima Naimjonovna**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi  
"Davlat moliysi va xalqaro moliya" mutaxassisligi magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada moliya bozorining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati, uning istiqboldagi asosiy yo'nalishlari keng yoritib berilgan. Moliya bozorini rivojlantirish sharoitida O'zbekiston fond birjasi faoliyatini takomillashtirish istiqbollari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** bozor kapitalizatsiyasi, strategiya, valyuta bozori, korporativ boshqaruv, moliya bozori, moliya instrumentlari, fond birjasi, qimmatli qog'ozlar bozori, real investitsiya, korporativ boshqaruv, moliyaviy resurslar.

**Abstract:** The role and importance of the financial market in the country's economy, its main directions in the future are widely explained in the article. Prospects for improving the activity of the stock exchange of Uzbekistan in the context of the development of the financial market were considered.

**Key words:** market capitalization, strategy, foreign exchange market, financial market, financial instruments, stock exchange, stock market, real investment, corporate management, financial resources.

**Аннотация:** В статье широко раскрыты роль и значение финансового рынка в экономике страны, его основные тенденции в будущем. Рассмотрены перспективы совершенствования деятельности Узбекской фондовой биржи в контексте развития финансового рынка.

**Ключевые слова:** рыночная капитализация, стратегия, валютный рынок, корпоративное управление, финансовый рынок, финансовые инструменты, фондовая биржа, фондовый рынок, реальные инвестиции, корпоративное управление, финансовые ресурсы.

## KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda qimmatli qog'ozlar bozori juda muhim o'rinni egallaydi. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish va rivojlantirish uchun samarali iqtisodiy siyosat yurgizish bilan bir vaqtida, moliyaviy sohada institutional islohotlar o'tkazilishi lozimligi ayni haqiqatdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida fond bozoridagi qimmatli qog'ozlardan maqbul tarzda foydalanish imkoniyatini yaratuvchi barqaror moliyaviy tizim sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday moliyaviy tizimga ega mamlakatlar iqtisodiy xatarlarga bardoshli bo'ladi.

Mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etish darajasi hamda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromadning yuqoriligi bilan bog'liq eng muhim ko'rsatkichlar, jumladan, (moliya bozorida muomalada bo'lgan qimmatli qog'ozlar turlarining ko'pligi va likvidlilikning yuqoriligi, aktsiyadorlik jamiyat (AJ)larida yuqori dividend siyosati, birja savdo tizimlarining takomillashganligi) moliya bozorining yuqori darajada rivojlanganligi, xususan, qimmatli qog'ozlar bozori (QQB) kapitalizatsiyasining yalpi ichki mahsulot (YALM) hajmiga nisbatan ulushining yuqoriligi bilan izohlanadi.

ПРОГРЕСС  
ТАРАQQIYОТ



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARI

Ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan mavzu bo'yicha dolzarb g'oyalari ularning ya'ni bozorlar rivojlanish xususiyatlari va undagi moliyaviy vositalarga e'tibor qaratilgan.

So'nggi besh o'n yillikda, ayniqsa, muhim moliyaviy tadqiqot yo'nalishlari portfel nazariyasi, kapital aktivlari bahosi nazariyasi, foiz stavkalari tuzilishi nazariyasi, kapital tuzilishi nazariyasi, agentlik nazariyasi, samarali bozorlar nazariyasi va opson narxlari nazariyasi bo'lib hisoblanadi. Jumladan, G. Markovits 1952-yilda portfel nazariyasi bo'yicha tadqiqot natijalarini e'lon qildi, unda u bir o'lchovli investitsiya mezonlarining an'anaviy qo'llanilishini, masalan, sof joriy qiymat (NPV) mezoni ikki o'lchov bilan almashtirilishi kerakligini ta'kidladi. Keyingi o'n yilliklarda u o'z modelini kengaytirgan holda investorlar qimmatli qog'ozlarga alohida ya'ni faqatgina bitta qimmatli qog'ozga qaramasliklari kerakligini ta'kidladi.

Keyinchalik (1964-yilda) Uilyam F. Sharp Markovits modeliga asoslangan tadqiqotlarni takomillashtirdi. Markovits modeli bilan bog'liq qiyinchiliklardan biri shundaki, u investitsiya qilish jarayonida mavjud bo'lgan qimmatli qog'ozlar soni ko'p bo'lsa, u juda katta bo'lgan variatsiya-kovariatsiya matritsasini baholashni talab qiladi. Sharp Mark ma'lum bir qimmatli qog'ozlarning daromadlari faqat umumiyoq omilga, odatda bozor indeksining qaytishiga nisbatan sezgirligi bilan o'zaro bog'liq, deb hisoblab, murakkab bo'lgan baholash tartibini soddallashtirdi. Sharp Mark bundan keyin barcha investorlar risksiz foiz stavkasi bo'yicha qarz berish va qarz olish imkoniyatiga ega, ular samarali chegara shakliga rozi bo'lishadi va tranzaksiya xarajatlari yo'q taxminga tayanish lozimligini ta'kidladi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan professor Sh.Sh. Shoha'zamiy yondashuviga ko'ra, moliyaviy vositalar (bank kapitalini oshirishga, likvidligini, bozor kapitalashuv darajasini oshirishga olib boruvchi sifatida) moliyaviy resurslarni investorlardan iste'molchilarga tomon va aksincha yo'nalishda harakat qilishini ta'minlovchi vositalar hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'rganish jarayonida mavzu bo'yicha statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo'llanildi. Tahlil davomida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy globallashuv sharotida moliya bozorini xalqaro miqyosda rivojlantirish, investitsiyalardan samarali foydalanishga qaratilgan masalalarning yechimiga erishish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqot natijalari asosida moliya bozorining milliy va xalqaro tizimlarini rivojlantirishga urg'u berilmoqda hamda uzlusiz ravishda takomillashtirilmoqda. Ammo yirik kompaniyalarning aktsiyadorlik kapitali tuzilmasida davlat ulushining yuqoriligi, moliya bozori orqali investitsiya jalb etishni takomillashtirish, moliyaviy instrumentlar likvidlilagini oshirish, jahon kapital bozoriga integratsiyalashuvini ta'minlash orqali moliyaviy resurslar jalb qilishni kengaytish, qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozorini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb ahamiyatga ega.

Ma'lumki, O'zbekiston iqtisodiyotda hozirgi vaqtida amalga oshirilayotgan tuzilmaviy o'zgarishlar, eng avvalo fond bozori bilan bevosita bog'liq bo'lib kelmoqda. Chunki Respublikada rejalashtirilgan investitsiya programmasini amalga oshirishda o'tish davriga xos bo'lgan moliyaviy resurslarning chegaralanganligi sezilmoqda. Shuning uchun ham fond bozorining qimmatli qog'ozlaridan samarali foydalanish, ularning eng qulay shakllaridan foydalanish muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

Hozirgi globalashuv sharotida fond bozorlari iqtisodiyatning asosiy tarmog'i bo'lib kelmoqda. Bundan ko'rinish turbdiki, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish iqtisodiyotni rivojlantirish demakdir. Hozir jahon fond bozorlari bir qancha muammoli holatlar vujudga kelmoqda. Prezidentimiz bu muammolar haqida quyidagi fikrlarini bildirganlar: "Muhim masala - yurtimzda fond bozori, fond birjasini yanada rivojlantirish uchun qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi ishini tubdan qayta tashkil etish lozim"<sup>1</sup>. Biz bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini o'zaro sheriklik asosida xususiy sektorga o'tkazish bo'yicha ishlarni davom ettiramiz. Internet tarmog'ida elektron savdolar va auksionlar orqali yer uchastkalarini, jumladan, tadbirkorlar uchun ajratishning yagona tartibini o'rnatish zarur.

Valyuta bozorini isloh qilishga qarshi bo'lgan ayrim "ekspertlar"ning ikkilanishi va "maslahat"lariga qaramasdan, biz qisqa muddatda xalqaro standartlar asosida valyutani liberallashtirish jarayonini boshladik.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtaida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma. – T.: "Ma'naviyat", 2018. 189-b.



Lekin biz yaxshi tushunamizki, bu ish ushbu sohadagi islohotlarning boshlanishi, xolos. Valyuta siyosati biznes va iqtisodiyotni rivojlantirish manfaatlariiga to'liq xizmat qilishi, investitsiya faoliyatiga ijobiy turtki berishi lozim<sup>2</sup>.

Shu boisdan, Muhtaram Prezidentimiz tomonidan “2020–2025-yillarda moliya bozorini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va erkin muomaladagi jami qimmatli qog'ozlarning yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatini 2025-yil oxiriga qadar kamida 10–15 foizga yetkazish kun tartibidagi asosiy masala ekanligi ta'kidlandi”<sup>3</sup>. Bunday ustuvor va dolzarb vazifalarning samarali amalga oshirilishi mamlakatimizda moliya bozorining xususiyatlari va rivojlanish tendentsiyalarini tadqiq etish hamda moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni faollashtirish lozimligini ko'rsatmoqda.

Iqtisodiyotning rivojlanishi tarixiga nazar tashlansa, moliya bozorini, avvalambor, insoniyat jamiyatida pulning paydo bo'lishi va u bilan bog'liq bozor munosabatlarni amalga oshirila boshlashidan shakllanishini ko'rish mumkin. Asrlar davomida moliya bozori, uning mazmuni va unga oid tushunchalar shakllanib va uzluksiz rivojlanib kelmoqda. Bunga sabab, inson sivilizatsiyasining moliya sohasidagi tajribasini boyishi, unda shaxslarning (yuridik va jismoniy) moliyaviy munosabatlari va qiziqishlari kengayib, maqsadlari va faoliyat turlari ortib, manfaatlari tobora o'sib, ularning haq-huquqlari borgan sari mustahkamlanib va ta'minlanib borishidadir.

Bozorning eng yuqori darajada rivojlangan turi moliya bozori hisoblanadi. Hozirda moliya bozori yuqori darajada tashkillashgan va uzluksiz rivojlanayotgan, borgan sari jahon miqyosida globallashib borayotgan alohida bir butun va o'z muhitiga ega munosabatlар va institutlar (qatnashchilar) majmuasi sifatida namoyon bo'lувчи murakkab tizim ekanligi aniq bo'lmoqda. Bunda moliya bozorlari nafaqat milliy iqtisodiyot, balki global iqtisodiyot rivojini belgilamoqda. Uning mazmun-mohiyati quyidagi kontseptual tushuncha va qonuniyatlar asosida belgilanadi.

Moliya bozorini, umuman olganda, quyidagicha ta'riflash mumkin. Moliya bozori bu monetizatsiyalashgan real investitsion bazisga ekvivalent moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq tashkillashgan iqtisodiy-huquqiy mexanizm bilan ta'minlangan munosabatlarni maqsadli amalga oshiruvchi, iqtisodiyot subyektlari uchun zaruriy bozor sharoitlarini yaratib beruvchi majmua sifatida namoyon bo'lувчи tizimdir.

Moliyaviy resurslarni jalb qilishda foydalanuvchi usullarni asoslashda nazariy va amaliy yondashuvlarni tahlil qilish mahalliy, milliy va jahon kapital bozorlariga nisbatan quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

*birinchi navbatda*, moliyaviy resurslarni jalb qilish usullari moliyaviy menejmentning maqsadlariga mos ravishda farqlanadi;

*ikkinchidan*, moliyaviy resurslarni jalb qilish usullari kapital bozorining segmentlari va turlari bo'yicha o'z xususiyatlariga ega;

*uchinchidan*, moliyaviy resurslarni jalb qilish usullari moliyaviy vositalar asosida aniqlanadi;

*to'rtinchidan*, moliyaviy resurslarni jalb qilish usullari quyidagi parametrlar: moliyaviy resurslarni jalb qilish maqsadlari, hajmi va shartlari, kompaniyaning tashkiliy va iqtisodiy xususiyatlariga bog'liq.

Moliyaviy resurslarni jalb qilish jarayonida foydalanimuvchi moliyaviy instrumentlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiyotning korporativ sektorida kapital bozori segmentlarining o'zaro munosabatlari shakllanadi. O'z navbatida, segmentlar o'zaro ta'sirining xususiyatlari va darajasini tahlil qilish qimmatli qog'ozlar bozori va kredit bozorining (kuchli, o'rta, zaif) uch turdag'i o'zaro bog'liqligini aniqlash va tavsiflash imkonini beradi.

Lekin har qanday bozorni u yoki bu belgi asosida tasniflanishining mazmuni uning tovari hususiyatlari bilan bog'liq holda amaliy ahamiyati bilan belgilanishini hisobga olsak hamda, agar ko'rileyotgan bozor turlaridagi tovarlarni xususiyati, kelib chiqishi va ularning bozor muomalasini bir-biri bilan taqqoslaydigan bo'lsak, albatta, sezilarli farq namoyon bo'ladi. Masalan, ishlab chiqariladigan tovarlar muomalasi uchun ularga hos bo'ligan bozor zarur, qimmatli qog'ozlar uchun esa faqat moliya bozori, pul (valyuta) va kreditlar uchun mos ravishda pul bozori va kreditlar bozori bo'lishi kerak va h.k. Bunda real tovar, moliya instrumentlaridan farqli, bir yoki bir necha marotaba oldi-sotti bo'ladi, qimmatli qog'ozlar esa cheklanmagan martta oldi- sotti bo'lishi mumkin. Umuman olganda tovar kimningdir tomonidan ishlab chiqariladi, moliyaviy instrument (jumladan qimmatli qog'oz) esa muomalaga chiqariladi.

Moliya bozori har qanday mamlakatning umumiyl bozorini tarkibiy, ammo, asosiy va alohida qismidir. Lekin, moliya bozorining asosi real tovarlar bozoridir. Bunda moliya bozori real iqtisodiyot va tovar bozorining ustqurmasi sifatida namoyon bo'lishi bilan birga tovar bozori va iqtisodiyotni moliyaviy ta'minlaydi va muvofiqlashtiradi, umuman iqtisodiyotning obyektiv holatini ifodalaydi va rivojlanishini belgilaydi.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O'zbekiston Respublikasini 2018-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan murojaatnomasi.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Fond bozorini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bayonoti. 2019-yil 7-oktyabr. <http://xs.uz/uzkr/post/fond-bozorini-rivozhlanirish-masalalari-muhokama-qilindi>.



Tahlillar ko'rsatishicha, barcha rivojlanayotgan mamlakatlarda kuzatilayotgan o'xshash jihatlardan biri likvidlilikning yetishmasligidir. Vaholanki, likvidlilik har qanday iqtisodiyot taraqqiyotida hal qiluvchi omil bo'lib, bunda bir-biri bilan bog'liq shunday jarayon kuzatiladiki, chet ellik sarmoyador kompaniya likvidli bo'lsa, unga investitsiya jalb qiladi, ayni paytda korxonaga sarmoya kiritmay turib, likvidlilikni oshirish mushkul. Aynan shu o'zaro bog'liqlikni ta'minlash yoki boshqarish professional yondashuvni talab etadi.

Moliya bozorini samarali tashkil etish va boshqarishda tartibga solish jarayoni juda muhim, ammo u haddan tashqari qat'iyashtirilmasligi zarur. Ushbu bozor rivojlanishi uchun uning ishtirokchilari ko'lamini kengaytirish va bu jarayon listing talabiga javob bermaydigan korxonalar hisobiga amalga oshirilmasligi darkor.

Birjada emitentlar ortib, ular tomonidan obligatsiya va aktsiyalar muomalaga chiqarilsa va daromadli bo'lsa, ularni sotib olishga qiziqish kuchayadi. Natijada Yalmaj banklar va birja ulushlarining balanslashuvi ta'minlanadi. Shuningdek, moliya bozori rivojida aholi o'tasida moliyaviy madaniyatni oshirish ham o'ziga xos rol o'ynaydi. Masalan, Vengriyada 2003-yilda bu borada katta islohotni amalga oshirishga kirishilgan, hozirga kelib bu mamlakatda moliyaviy madaniyatni shakllantirish masalasi maktab darsliklaridan o'r'in olgan.

Jahon kapital bozorida kuzatilayotgan muhim jihatlaridan yana biri bu, xorijiy investor qaysidir mamlakatga sarmoya kiritmoqchi bo'lsa, uning mahalliy qonun- qoidalarga moslashuvi qiyin kechadi.

Xalqaro standartlarga muvofiq mavjud milliy qonunchilik esa chet ellik sarmoyadorga qulay sharoit yaratadi. Jahon talablariga tayanilgan holda hayotga tatbiq etiladigan xuddi shunday hujjatlar qatoriga korporativ boshqaruv kodeksini kiritish mumkin. Shu bois, ishtirokchilarga korporativ boshqaruv tamoyillarining huquqiy asosları, uni tatbiq etishning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, Ajlarda direktorlar kengashi, unda mustaqil a'zolarning o'rni ham muhim sanaladi. U yerda rivojlangan mamlakatlardagi singari aksiyalar bilan oldi-sotdini amalga oshirish uchun masofadan turib brokerlik hisob raqami ochish yo'lda qo'yilgan ekan. Bu xorijiy investorlar uchun juda katta qulaylik va bozor ishtirokchilari sonini oshirishda zarur omillardan biri hisoblanadi. Bizda esa bu jarayon hali yo'lda qo'yilmagan va mavjud qonunchilikka o'zgartirish kiritmasdan turib, uni amalga oshirish imkonsizdir.

Korporativ harakatlarga xizmat ko'rsatish asosida: kapital bozori ishtirokchilarining vaqt va moliyaviy xarakatlarini kamaytirish; kapital bozori ishtirokchilari o'zaro hisob-kitoblaridagi xatarni kamaytirish; daromadlar to'lovi va moliyaviy instrumentlarni so'ndirishning markazlashtirilgan tizimini joriy etish; Markaziy depozitariyni O'zbekiston kapital bozorida yagona hisob-kitob tashkiloti sifatida rivojlantirishga erishiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda moliya bozori orqali, bir tomonidan davlat korxona va tashkilotlar, aholi o'zlarini uchun zarur bo'lgan mablag'ni jalb qilsalar, ikkinchi tomonidan korxona, tashkilot va aholi o'zlarining vaktincha bo'sh turgan pul mablag'larini qimmatbaho qog'ozlar sotib olishga yo'naltirib foyda ko'radilar. Bu esa moliyaviy resurslarning harakatini ta'minlab, iqtisodiy o'sishga turki beradi.

Moliya bozorining investitsion faolligini oshirish, nafaqat, aktivlar qiymati va savdo hajmlarining o'sishi bilan birga olib borilishi kerak, balki qimmatli qog'ozlar bozorining barcha ishtirokchilari faoliyati ta'minlanishi zarur. Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish moliyaviy resurslarni faollashtirishga, ulardan oqilona foydalanishga va iqtisodiy rivojlanishni bir mucha tezlashtirish uchun qayta taqsimlashga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Davlat va xo'jalik birlashmalari ulushi mavjud bo'lgan Ajlari aktsiyalar paketlarini birlamchi va ikkilamchi omnaviy taklif (IPO va SPO) asosida sotish lozim. Buning natijasida kapital (moliya) bozorining milliy iqtisodiyotdagi mavqeyini hamda investitsiyalarni jalb etishdagi rolini oshirish, birja savdolariga keng jamoatchilikni jalb qilish imkoniyati asoslangan.

Strategik ahamiyatga ega yirik kompaniyalarning aktsiyadorlik kapitali tuzilmasida davlat ulushini bosqichma-bosqich qisqartirish yo'nalishlarini ishlab chiqish zarur. Natijada yirik investitsiyalar talab qiladigan tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi ish o'rinalarini yaratish va budget daromadlarini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Moliya bozorini rivojlantirish, nafaqat, davlat yoki korxonalar pul mablag'larini shakllantirish va joylashtirishda, balki mazkur bozorga aholi mablag'larini jalb etishni ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur holatlarning barchasi O'zbekistonda moliya bozorini rivojlantirish uchun yagona kontseptsiyaga kuchli ehtiyoj mavjudligidan dalolat beradi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma. – T.: "Ma'naviyat", 2018. 189-b.
2. Allayarov, S.A. (2020). Strengthening tax discipline in the tax security system: Features and current problems. South Asian Journal of Marketing & Management Research, 10(11), 124-128.



3. Allayarov, S., Allayarov, S., Yuldasheva, U., & Madjidov, N. (2020). Assessment of the effectiveness of the results of the fiscal policy of the republic of Uzbekistan. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(7), 7920-7926.
4. Сатторов, Б. К., & Алляяров, С. Р. (2017). Развитие экономики Узбекистана в условиях мировых интеграционных процессов. Наука, техника и образование, 1(5 (35)), 98-100.
5. Алляяров, С. Р., & Кандахарова, Ш. Н. (2021). Перспективы эффективного использования бюджетных средств в управлении государственными ФИНАНСАМИ. СТОЛИЦА НАУКИ, 3, 4.
6. Алляяров, С. (2022). К вопросу реализации оптимизированной фискальной политики при стимулировании экономического роста. Архив научных исследований, 2(1).
7. Anvarov, N. M. O. G. L., & Allayarov, S. R. (2022). Mahalliy byudjetlarni qo 'shimcha manbalardan foydalanishning umumnazariy asoslari. Science and Education, 3(2), 1519-1527.
8. Allayarov, S. (2018). Theoretical Study of Optimal Fiscal and Monetary Policies for Stimulating Economic Growth. Research Journal of Finance and Accounting, 9(8), 206-212.
9. Алляяров, С. Р., Мардонов, Ш. Х., & Абдурахимова, Г. М. (2020). Ретроспективный и целеориентированный подходы к оценке эффективности фискальной политики. Экономика и социум, (4), 138-147.
10. Алляяров, С. Р., & Зайнитдинов, С. М. Ў. (2021). Иқтисодий ўсишга таъсир кўрсатувчи омиллар ва уларнинг таснифи. Science and Education, 2(11), 1156-1169.
11. Хидиров, Н., & Мамаджонова, С. (2022). Obtaining higher education for women: issues and challenges: [https://doi.org/10.55439/ECED/vol23\\_iss3/a30](https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a30). Экономика и образование, 23(3), 198-205.
12. Mehmonaliev, A. G. U., & Khidirov, N. G. (2022). Public finance management its modern problems. Science and Education, 3(11), 1075-1080.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



## Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.